

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирилар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка).....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI.....	191-196
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI	210-216

Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI217-223

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI224-228

Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
TATBIQ ETISH METODIKASI229-233

Pirimova Nargiza Adilovna
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH234-239

Tangirqulov Elmurod Aliyarovich
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK
TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI240-244

Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI245-258

Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR
TUSHUNCHASI259-265

Valieva Xolida
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI266-271

Djumayeva Dildora Isroilovna
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI272-277

Davlatova Nilufar Vosiljonovna
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI278-285

Mamaraimova Zebo Shafokatovna
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK
TAMOYILLARI286-290

Turayev Yolqin Sherzod o'g'li
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI291-295

Abdurasulova Shoirra Kushakovna
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH296-305

Sottarov Abduvali Umirqulovich
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI
SIFATIDA306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омилевич</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOIYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	458-463

Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li,
Andijon davlat universiteti stajyor tadqiqotchi
E-mail: jorayevbobomurod5@gmail.com

TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI

Annotatsiya. Zamonaviy pedagogik oliy ta'lim talabalarining jismoniy faolligini oshirish — pedagogik muloqotni shakllantirish jarayoni metodologik, pedagogik, psixologik, texnologik yondashuv, muayyan pedagogik tizimdagi tegishli pedagogik nazariya, amaliy tadqiqot texnologiyalari tizimini talab qildi. Bularning barchasi ishlab chiqilgan maqsadli-konseptual, tuzilmaviy-mazmundor, tizimli-pedagogik, izchil, axborot tizimlashtirilgan, metodik jihatdan mukammal, pedagogik jihatdan tadrijiy, kasbiy va shaxsiy-yo'naltirilgan, ta'lim muassasasida pedagogik nazariyaning amaliyot bilan mustahkam aloqasida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqotni, oliy ta'lim, Zamonaviy, jismoniy faolligini, darslari, etikasi va estetikasi, talabalar, Mashg'ulot, maqsad, tushuntirish, sport. ko'rsatma berish, tasvirlash.

Juraev Bobomurod Ramazonali ugli
Research, Andijan State University

THE LEVEL OF EFFECTIVENESS OF THE PROCESS OF INCREASING AND DEVELOPING PHYSICAL ACTIVITY OF STUDENTS

Annotation. increasing the physical activity of students of modern pedagogical higher education — the process of forming pedagogical communication required a methodological, pedagogical, psychological, technological approach, corresponding pedagogical theory in a specific pedagogical system, a system of applied research technologies. All this is developed purposefully-conceptually, structurally-meaningfully, systemically-pedagogically, consistently, informationally systematized, methodically perfect, pedagogically-pedagogically, professionally and personally-oriented, which is manifested in the strong connection of pedagogical theory with practice in an educational institution.

Keywords: pedagogical communication, higher education, modernity, physical activity, lessons, ethics and aesthetics, students, learning, purpose, explanation, sport. instruct, describe.

Джураев Бобомурод Рамазонали угли
Стажер-исследователь Андижанского
государственного университета

УРОВЕНЬ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОЦЕССА ПОВЫШЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. повышение физической активности студентов современного педагогического высшего образования — процесс формирования педагогического общения потребовал методологического, педагогического, психологического, технологического подхода, соответствующей педагогической теории в конкретной педагогической системе, системы прикладных исследовательских технологий. Все это вырабатывается целенаправленно-концептуально, структурно-содержательно, системно-педагогически, последовательно, информационно систематизировано, методически совершенно, педагогически-педагогически, профессионально и личностно-ориентировано, что проявляется в прочной связи педагогической теории с практикой в образовательном учреждении.

Ключевые слова: педагогическое общение, высшее образование, современность, физическая активность, уроки, этика и эстетика, студенты, обучение, цель, объяснение, спорт. инструктировать, описывать.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N60>

Kirish. Tadqiqotning metodologik asoslari, bilim va yondashuvlar ilmiy- pedagogik tadqiqotning umummetodologik tamoyillarini (tizimlilik, komplekslilik, obyektivlik, nazariya va amaliyotning birligi) hamda juz'iy-metodologik tamoyillarni (determinizmga oid), faol kommunikativ faoliyatni belgilashga yordam beradi [1].

Zamonaviy oliy ta'lim talabalarining jismoniy faolligini oshirish va rivojlantirishda — pedagogik (muloqot) madaniyatini shakllantirish jarayoni ishlab chiqilgan pedagogik tizim doiralarida, tajriba-sinov dasturiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Tajriba-sinov jarayonida quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratiladi:

1. Dastlabki — motivatsion va tashkiliy-pedagogik.
2. Asosiy: axborot-anglash, shakllantiruvchi, aks ettiruvchi.
3. Amaliy – jismoniy harakatchanlik, harakatli faoliyat tajribasini egallash.
4. Jismoniy faollashtirish va o'zini-o'zi takomillashtirish.
5. Yakuniy bosqich — natijalarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish.

Tajriba-sinovning har bir bosqichida erishilayotgan natijalar jadvallarda aks ettirilgan muammoni yechishning ilmiy asoslangan, zamonaviy oliy ta'limda talabalarining jismoniy faolligini oshirish va rivojlantirishning dinamikasini ko'rsatuvchi jarayondir [2].

Tajriba-sinov ishining birinchi bosqichida oliy ta'lim talabalarining jismoniy faoligi — pedagogik jarayonning muhimligi va zarurligiga oid shaxsiy mohiyati, motivatsiyasi anglash lozim.

Oliy ta'lim talabalari uchun mo'ljallangan jismoniy tarbiya darslari uchun dasturda ifodalangan — “Sport etikasi va estetikasi”, “Sport va axloq”, “Pedagogik muloqot”, “Pedagogik muloqotning psixogigiyenasi (estetika- axloq darajasida)” mavzularini taqdim etamiz. Tajriba-sinov jarayonida professor-o'qituvchilarning pedagogik jihatdan mazmundor texnikasi, mavzular va mashg'ulotlar tuzilishini ishlab chiqish, kasbiy madaniyat asoslari, pedagogik muloqot madaniyatini bilishni talab etadigan turli vaziyatlarga e'tibor qaratamiz. Jumladan, ayrim mashg'ulot mavzulari va uning maqsadini bayon qilishga harakat qilamiz.

Mavzuning maqsadi: talabalarni sport, uning etikasi va estetikasi to'g'risidagi tushunchalari, mulohazalari; sport tarixi, O'zbekiston sporti to'g'risidagi mulohazalar bilan tanishtirish; talabalarda sport etikasi va estetikasini idrok qilish, tahlil etish qobiliyatni shakllantirish; oliy ta'lim talabalarida pedagogik muloqotni shakllantirishdan iborat.

Mashg'ulot davomida kuzatish, xabar berish, maqsadni belgilash, tushuntirish, ko'rsatma berish, tasvirlash, hikoya qilish, suhbat, dialog, muhokama qilish, tizimlashtirish, rejalashtirish, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish, takrorlash, mustahkamlash, rag'batlantirish kabi metodlardan foydalaniladi [3].

Mashg'ulotning tuzilishi va mazmundor yo'nalishi. Bu jarayonda mashg'ulot mavzusi talabalarining ongiga quyidagicha yo'naltiriladi:

- 1) talabalarni ushbu mashg'ulotning maqsad-mazmuni va natijasi bilan tanishtirish;
- 2) lug'at-tushunchaviy zaxirani to'ldirish, ular: “sport”, “etika”, “estetika”, “sport estetikasi” kabilar. Mashg'ulot davomida ushbu yangi so'zlar, atamalar va tushunchalar

mazmuni ochib beriladi;

3) ayrim hollarda talabalarga yangi materiallar taqdimotlar, jadvallar tarzida ham bayon qilinadi;

4) talabalarda yangi bilimlarni idrok qilish va anglab olishga nisbatan hissiy-ijobiy kayfiyatni hosil qilish;

5) mavzuning reja bo'yicha bayon etilishiga erishish.

Mavzuga oid yangi ma'lumotlar quyidagi tartibda berib borilishi mumkin:

I. Sport, uning estetikasi tarixi: 1) talabalarda sportdagi etika,estetika to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish; 2) ibtidoiy jamiyat,

Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim, O'rta asrlar hamda Uyg'onish davrida sport etikasi va estetikasining shakllanishi va rivojlanishi haqida ma'lumot berib borish; 3) zamonaviy sport, jumladan, O'zbekiston sporti to'g'risida tushuncha berish; 4) sportning birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan turlari, ularning etikasi va estetikasi haqida ma'lumot berish; 5) sportning milliy-an'anaviy turlari, ularning estetik xususiyatlarini ochib berish; 6) sport, uning etikasi va estetikasining real hayotga ta'siri haqida bayon qilish; 7) zamonaviy sportdagi yuksak estetikaga oid misollar keltirish, jahon chempionatlarida sportdagi go'zallik lahzalarining mohiyatini ochib berish [4].

II. Sport estetikasini idrok qilish-tahlil etish asoslari:

1) sport estetikasi sohasidagi lug'at-tushunchaviy asoslar: estetika, go'zallik, nafosat, uyg'unlik; shakl, ritm, dinamika, nafislik, nozik harakat, nazokat, bejirimlik; harakat taassuroti; tezlik, kuch, qudrat; muvozanat; o'zini tuta bilish; strategiya, taktika; musobaqalashuvchanlik; sportdagi yuksak estetikani misollar asosida bayon qilish; 2) sportda go'zallik belgilari, sport chiqishlaridagi estetik mukammallikni takrorlash, jumladan, sport va badiiy gimnastikada; muz ustidagi raqslarda — yakka va juft; 3) sport etikasi va estetikasini idrok etish- tahlil qilishga oid taqdimotlar va jadvallar bilan tanishtirish, ulardagi matnlarni hissiy, mantiqiy analitik idrok etish, o'rganish, umumlashtirish, o'z taassuroti, fikrini boshqalarga yetkazish; 4) sport etikasi va estetikasini idrok qilish texnologiyasini tasavvur qilish, jumladan, hissiy-ijobiy kayfiyatning vujudga kelishi, ijodiy-ilhomlangan, motivatsion muhitning yaratilishiga e'tibor qaratish lozim.

Oliy ta'lim talabalarida tashqi qiyofa; hissiy holat; intellekt, ijodkorlik, individuallik, ijobiy xulq-atvor; fikr- mulohaza kabi muhim insoniy fazilatlar namoyon bo'lishi kerak [5].

Jismoniy faollikdagi bosh estetik komponent — harakatni ko'rib chiqish, muhokama etish va yodda saqlash hisoblanadi. Sportdagi harakatlarni idrok qilish quyidagi tizimli-mantiqiy asoslarga tayanilgan holda amalga oshiriladi [6]. Jumladan, badiiy gimnastikada 1) badiiy gimnastikadagi harakatlar estetikasi — ushbu sport ijrochiligining muhim omili ekanligi; 2) talabalarining tashqi jismoniy belgilari, uning estetik qiyofasi (yoqimlili, jozibadorligi); 3) talabalarining maydonga (sahnaga) chiqishi, mashqlarni boshlashi, talab darajasida bajarishi kabi harakatlariga xos bo'lgan ilk taassurotlar hosil bo'ladi. Shuningdek, badiiy gimnastikadagi ayrim harakatlar, kompozitsiya, rasm, chiziq, shakl; tasviriylik, obrazlilik, badiiylik (san'at bilan yaqinlik); tabiiylik, erkinlik; texnologiklik; murakkablik, xatarlilik, jasurlik, dovyuraklik, tezlik, dinamika kabilar shakllantiriladi. Badiiy gimnastikada sakrashlar, ularning amplitudasi, parvoz balandligi, elementar kombinatsiyalarning ko'pligi, xilma-xilligi, yangiligi, o'zini-o'zi nazorat qilishi, o'zini tuta bilishi muhim ahamiyatga ega.

III. Harakatlar va ularning estetikasi: 1. Harakatlar texnikasi va badiiy-estetik tavsifiga: a) usuli, bajarish metodikasi; b) benuqsonligi, yuksak mahorati, o'ziga xosligi,

individualligi; v) o'zini erkin tutishi, ravonligi, erkinligi, nafisligi, xushbichimligi; g) harakatlar, ularning kombinatsiyalari: rang-barangligi, o'ziga xosligi, yangiligi, dekorativ ta'siri; kombinatsiyalar go'zalligi; ularning ifodaliligi; qiyinligi, ortiqcha harakatsiz va mulohazasiz o'zaro muvofiqlashtirilishi; musiqaviy jo'rlikka mosligi, ularning musiqa bilan bog'liqligi kabilar kiradi.

IV. Harakatlar, ularning badiiyligi, badiiy-estetik qadr-qimmati va estetikasiga:

1) badiiy shakli; 2) badiiy harakatlari; 3) tasviriyliigi, maftunkorligi, mukammalligi; 4) ritmi, sur'ati, egiluvchanligi, hajmi; individual ijrodagi shaklning sifat jihatdan o'ziga xosligi va estetik xususiyatini kiritish mumkin.

V. Talabning o'zini-o'zi ifodalashi kuzatilayotgan harakatida (masalan, badiiy gimnastika ijrochisi) uning muhim shaxsiy sifatleri namoyon bo'ladi. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida ushbu sportchi harakatining estetikasi va badiiyligi to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilinadi.

VI. Sport estetikasini idrok etish — tahlil qilish. Bu jarayonda oliy ta'lim talabalariga jahon miqyosida e'tirof etilgan gimnastikachilardan birining chiqishidan olingan videotasma namoyon etiladi. Ular videotasmani idrok qilishlari kerak. Buning uchun ular uni idrok etishning texnologiyasini bilishlari talab etiladi. Videotasmani idrok etish texnologiyasi quyidagicha bo'lishi mumkin: 1) videotasmada namoyish etilgan badiiy gimnastikachi to'g'risida qisqacha ma'lumot; 2) gimnastikachi qayerda, qachon chiqish qilgan; 3) gimnastikachining sahnada o'zini erkin tutishini his etish; gimnastika elementlarini estetik anglash va unga nisbatan mantiqiy-analitik munosabat; badiiy gimnastikachining sahnadagi sport estetikasi bo'yicha suhbat uyushtirish.

VII. "Sport etikasi va estetikasi" mavzusini umumlashtirish. Ushbu mavzuni umumlashtirish quyidagicha: bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining sport etikasi va estetikasi bo'yicha nafaqat nazariy va amaliy bilimlari, balki kasbiy muloqot faoliyatida ularni amalga oshirish qobiliyatiga bo'lgan kasbiy zaruriyati kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisi sport etikasi va estetikasining barcha jihatlarini idrok etish, uni esda saqlash; sportni etik-estetik baholash jarayonida o'zini o'zi takomillashtirib borish; sport etikasi va estetikasi mavzusi bo'yicha pedagogik muloqotga mustaqil tayyorgarlik ko'rish kabilarni bilishi zarur.

VIII. Mavzuni takrorlash — mustahkamlash. Ushbu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi: a) sport tarixi, uning estetikasi bo'yicha nimalarni o'rgandingiz, qaysi jihatlar qiziqtirib qoldi? Nima uchun?; b) sport etikasi va estetikasini idrok qilish texnologiyasi, asoslari, sport estetikasini tahlil qilish, baholash, sportdagi ayrim komponentlarni estetik idrok qilish bo'yicha bilimlar zarurmi?; v) ushbu mashg'ulotlar sizga nima berdi, sanab o'ting?; g) mashg'ulotlar sportdagi estetik-tahliliy bilimlar o'zini o'zi takomillashtirishga undadimi?, kabi savollar bilan murojaat qilinadi.

IX. "Sport etikasi va estetikasi" mavzusi bo'yicha topshiriqlar beriladi. Jumladan, oliy ta'lim talabalarining qiziqishlari va qobiliyatidan kelib chiqqan holda erkin mavzuda insho yozish topshiriladi. Ular insholarda jismoniy tarbiyadagi go'zallik to'g'risidagi yorqin va hajmli mulohazalar va iboralarni yozadilar. Shuningdek, sport, uning estetikasi to'g'risidagi "tarixiy risolalar" (Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim va hokazolarda sport mavzusida) yozadilar.

“Sport estetikasi” mavzusi bo‘yicha hikoya va aytishuvlar uyushtiriladi. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining fikr- mulohazalari, ularning fantaziyalari aniqlashtiriladi. Ularga jahon musobaqalarida respublikamiz sportchilarining yutuqlari to‘g‘risidagi axborotlar beriladi. Sportning barcha turlari bo‘yicha jahon chempionatidan olingan reportajlar asosida teleko‘rsatuv tayyorlanadi, sportchilar hayoti va faoliyati haqidagi hissiy-estetik va tahliliy hikoyalar qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Oliy ta‘lim talabalarining jismoniy pedagogik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan referatlar mavzulari taqdim etiladi. Jumladan, “O‘zbekistonda sportning ustuvor yo‘nalishlari”, “O‘zbekistonda sportning milliy an‘anaviy turlari”, “Sport estetikasini idrok qilish asoslari”, “San‘at chegarasidagi sport” kabilar.

Talabalarning jismoniy faolligini oshirish maqsadida ular bilan turli mavzularda ma‘ruzalar uyushtiriladi. Masalan, “Olimpiada o‘yinlari va an‘analari”, “Sport va bugungi kun”, “San‘atni eslatuvchi sport turlari”, “Sportdagi yuksak estetika”, “Sportdagi go‘zallikni qanday qilib ko‘rish — idrok qilish — tushunish mumkin”, “Sportdagi harakat go‘zalligi nima?”, “O‘zbek sportchilari mamlakatimiz faxri (Olimpiada, jahon va Osiyo chempionlari misolida)” va b.

Talabalarning jismoniy faolligini rivojlantirish maqsadida ularga mashhur sportchilar to‘g‘risida hikoya qilib berish usulidan ham foydalanish mumkin. Shuningdek, “Sport etikasi va estetikasi” mavzusi bo‘yicha ularga adabiyotlarni tanlash, to‘plash va bibliografik rasmiylashtirish vazifasi beriladi.

Shu bilan bir qatorda, talabalarning jismoniy pedagogik madaniyatini rivojlantirish uchun ular bilan metodik ishlar amalga oshiriladi. Ularga turli metodik ishlanmalar tayyorlab kelish vazifasi topshiriladi. Talabalar o‘zlarining qiziqishlari doirasida turli ishlanmalar, taqdimotlar, ko‘rgazmali qurollar yaratadilar. Haftada ikki kun umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 4+2 dasturi davomida o‘quvchilarni sport estetikasi bilan tanishtirish maqsadida ushbu vositalardan foydalanadilar. Turli tadbirlar tashkil qilib, o‘quvchilarga sportdagi go‘zallik bo‘yicha tavsiyalar; sportchilarning muomala madaniyati yuzasidan maslahatlar beradilar hamda o‘quvchilar bilan hamkorlikda sport o‘yinlari tashkil etadilar.

Natijalar va muhokama. Tajriba-sinov jarayonida talabalarning amaliy-tajribaviy xarakatlari, o‘zini o‘zi faollashtirishi va ijtimoiy-kommunikativ faoliyati, o‘zini o‘zi takomillashtirishi xamda o‘zini o‘zi baxolashiga e‘tibor berish zarur. Oliy ta‘lim talabalari kommunikativ-pedagogik tajribalarni nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda xamda pedagogik amaliyot vaqtida egallaydilar, bu esa ularning turli ijtimoiy-kommunikativ chiqishlarida takomillashadi. Bunday dars mashg‘ulotlari, tadbirlar, birinchi navbatda, talabalarning o‘z kasbiy madaniyati ustida mustaqil ishlashi, pedagogik va jamoatchilik bilan estetik-axloqiy darajadagi muloqotini takomillashtirishi, o‘z chiqishlarini sifatli tayyorlashlari (texnologiyasi, mazmuni, texnikasi)ni taqozo qiladi.

Tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi (amaliy-faoliyatli) bosqichida quyidagi metodlardan foydalanish zarur, ya‘ni: muammoli bayon etish, kichik- tadqiqotchilik, baxs-munozaralar, kommunikativ-pedagogik vaziyatlarning taxlili, sport-o‘yinli metodlari va b. Bunday metodlar bilimlarni faol egallash, mustaqil tafakkur, ijodiy qobiliyatlar va sport xayotiga maksimal yaqinlashgan amaliy faoliyatni talab qiladi. Shuningdek, talabalarning yuksak jismoniy madaniy-pedagogik fazilatlarini faollashtiradi. Bunda asosiysi — talabalarning qiziqishi, o‘zaro xamda o‘qituvchi bilan xamkorligi, “muammoli jarayonga” ijodiy-o‘yin faoliyati

elementlarining kiritilishidir. Bunday faol metodlar talaba shaxsining kreativligi, uning kasbiy rivojlanishi va takomillashishiga yordam beradi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida oliy ta'lim talabalarining ishtirokini nazariy-pedagogik va amaliy mashg'ulotlarda; maxsus amaliyotlarda; ijtimoiy-kommunikativ tadbirlarda ko'rib chiqdik.

Xulosa. Pedagogik amaliyot davrida amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari va o'quvchilari bilan verbal muloqot; noverbal muloqot (til vositalaridan — nutq va tana xarakatlari — imo-ishoralar, xatti- xarakatlar va boshqalardan foydalangan xolda) olib boriladigan kasbiy- pedagogik muloqot va kommunikativ faoliyat kabilar ko'rib chiqildi. Pedagogik amaliyot davomida oliy ta'lim talabalari bilan tashkil etilgan turli tadbirlar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlarda turli pedagogik vaziyatlarning yechimi topiladi. Bunga talabalarning jismoniy xarakatlarini ifodalovchi: nizoli, munozaraviy-asosli, murosaga keltiruvchi, kulgili xolatlar kiradi. Bunday tadbirlar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlarda turli yoshda barcha talabalar katta qiziqish, ishtiyok, ijodiy ko'tarinkilik bilan ishtirok etdilar.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Determinizm. Masalan: maqsadli determinizm; tizimli determinizm — tizimning ayrim komponentlarining bir butunning xususiyatlariga bog'liqligi; teskari aloqa determinizmi; subyekt-predmetli — o'z predmetli faoliyati jarayonida subyektning o'zgarishi ("Psixologiya" lug'atiga qarang. — M.: Politlit, 1990. — 97-98-b.)
2. 143. Nurmanov A.T. Podgotovka studentov k texnologii i texnike effektivnogo obshcheniya. — T.: Fan va texnologiya, 2010. — 110 s.
3. J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008., — 30 b.
4. <https://www.shakopee.k12.mn.us/Page/964>
5. <https://works.doklad.ru/view/VU8oj3nvSlo>
6. Паначев В.Д. Спорт и личность: опыт социологического анализа / В.Д. Паначев // СОЦИС. — 2007. — №11. — 84 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).